


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib trln. so'm




## Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 850,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **2,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **630,4** mlrd. so'mni (**6,5 %** ga kamaydi). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 220,1** mlrd. so'mni (**4,0 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **358,6** mlrd. so'mni (**27,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda %



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 850,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **95,7 %** ni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **10,8 %** to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri **27,2 %** ulush bilan **1 590,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Farg'ona sh.  
1 590,0




## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni So'x' **1,5 %** ulush bilan **84,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



2020-yil  
yanvar-may



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Yirik korxonalar


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **5 220,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,0** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **89,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shtepa (**99,8**) Farg'ona (**99,4** %), So'x(**99,2** %), Furqat (**98,2** %), Yozyovon (**98,0**) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Quvasoy (98,6 %) va Marg'ilon shaharlarida (98,5 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>5 850,4</b>	<b>95,7</b>	<b>630,4</b>	<b>93,5</b>	<b>5 220,1</b>	<b>96,0</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	1 590,0	97,1	374,4	101,1	1 215,6	96,0
Qo'qon	866,7	94,6	132,0	88,7	734,7	95,7
Quvasoy	135,8	98,6	14,9	163,8	120,9	94,0
Marg'ilon	475,0	98,5	21,5	56,9	453,5	102,1
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	214,4	94,6	7,0	90,2	207,4	94,8
Qo'shtepa	349,1	94,2	0,6	161,4	348,4	94,1
Bag'dod	199,8	94,2	13,1	50,9	186,7	100,3
Buvayda	195,3	95,0	4,6	137,8	190,7	94,3
Beshariq	182,6	96,2	3,9	98,7	178,7	96,1
Quva	281,2	97,7	15,0	126,8	266,2	96,5
Uchko'prik	229,3	96,9	11,7	3,5 m.	217,5	93,2
Rishton	142,9	94,1	6,1	47,5	136,8	98,4
So'x	84,9	90,8	0,7	164,9	84,2	90,5
Toshloq	140,9	92,1	9,9	81,3	131,0	93,1
O'zbekiston	159,9	96,1	4,6	103,2	155,3	95,9
Farg'ona	195,2	92,2	1,1	9,7	194,1	96,8
Dang'ara	131,6	93,3	3,9	102,0	128,0	93,1
Furqat	90,8	94,5	1,6	110,2	89,1	94,2
Yozyovon	185,0	94,4	3,8	64,9	181,3	95,3

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,3 %** ga kamaydi va **630,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 220,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-May oylariga nisbatan **4,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (**99,8 %**), Farg'ona (**99,4 %**), So'x (**99,2**) va Furqat (**98,2 %**) tumanlarida yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **10,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Farg'ona (**23,6 %**), Qo'qon (**15,2 %**) va Quvasoy (**11,0 %**) shahrida kuzatildi.



## FARG'ONA VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1556,4** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **6,0** % ga kamaydi) va So'x (**89,1** %) hamda Farg'ona (**90,4** %), Toshloq (**90,3**) Dang'ara (**91,4** %), tumanlari va boshqa barcha shahar va tumanlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Farg'ona sh. (**5 494,2** ming so'm), Qo'qon (**3 423,1** ming so'm) va Marg'ilon (**2 017,9** ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyat	1 556,4	94,0
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	5 494,2	95,5
Qo'qon	3 423,1	93,1
Quvasoy	1 454,0	97,0
Marg'ilon	2 017,9	96,9
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	1 016,7	92,8
Qo'shtepa	1 841,0	92,4
Bag'dod	930,3	92,2
Buvayda	859,5	93,1
Beshariq	802,4	94,5
Quva	1 092,0	96,0
Uchko'prik	1 006,5	95,0
Rishton	709,4	92,4
So'x	1 091,5	89,1
Toshloq	699,1	90,3
O'zbekiston	671,3	94,3
Farg'ona	918,5	90,4
Dang'ara	760,3	91,4
Furqat	772,7	93,0
Yozyovon	1 679,2	92,5


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **358,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **27,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **191,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **87,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **167,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **61,6** %) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **191,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **167,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyat</b>	<b>358,6</b>	<b>72,9</b>	<b>191,2</b>	<b>87,0</b>	<b>167,4</b>	<b>61,6</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	56,5	91,0	43,6	111,3	12,5	44,0
Qo'qon	42,0	84,9	22,4	102,6	26,8	71,7
Quvasoy	11,1	76,9	3,1	38,7	5,7	43,9
Marg'ilon	24,3	83,8	29,7	99,0	20,9	58,5
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	20,5	77,6	6,5	65,6	1,9	22,5
Qo'shtepa	16,7	64,5	11,3	90,2	10,2	54,1
Bag'dod	18,6	66,6	9,6	108,2	25,6	122,2
Buvayda	14,7	57,8	17,2	145,8	5,1	51,8
Beshariq	10,8	50,3	9,9	127,3	21,6	180,1
Quva	21,5	66,8	11,6	109,4	5,8	62,0
Uchko'prik	17,7	66,1	1,3	28,5	2,1	21,2
Rishton	15,1	64,9	5,0	54,2	6,0	73,6
So'x	8,7	59,2	0,9	21,2	1,0	20,9
Toshloq	10,8	69,0	2,9	50,1	0,9	15,5
O'zbekiston	5,3	74,5	2,2	24,5	5,2	39,9
Farg'ona	23,3	72,0	7,6	94,2	12,3	87,6
Dang'ara	18,0	76,2	2,1	41,6	1,3	20,0
Furqat	5,7	64,0	0,5	8,5	0,0	0,0
Yozyovon	17,3	69,2	3,8	50,9	2,6	30,1

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI**



4,5 mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



60,5 mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari**



5,1 mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)**

37,6 mlrd. so'm



**Non va non mahsulotlari**



6,9 mlrd. so'm

**Sut va sut mahsulotlari**

2,3 mlrd. so'm



**Tuxum**

59,8 mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)**

2,9 mlrd. so'm



**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar**

2020-yilning yanvar-may oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **191,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**60,5 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.

2,0 mlrd. so'm



**Ziravorlar**

7,8 mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

1,8 mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)**

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **167,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **124,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **40,8** mlrd. so'mni, otlar **1,2** mlrd. so'mni, parrandalar **0,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,1 % ni tashkil etib, 65,7 mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 31,1 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 73,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>65,7</b>	<b>68,9</b>	<b>4,6</b>	<b>233,8</b>	<b>61,1</b>	<b>63,9</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	37,6	73,6	3,2	173,6	34,4	67,8
Qo'qon	8,7	75,3	1,3	50, m	7,4	63,7
Quvasoy	0,9	60,7	-	-	0,9	63,0
Marg'ilon	4,8	66,6	-	-	4,8	63,8
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	1,0	62,4	-	-	1,0	63,9
Qo'shtepa	0,4	57,6	-	-	0,4	54,3
Bag'dod	0,6	50,6	-	-	0,6	50,7
Buvayda	0,4	55,1	-	-	0,4	53,7
Beshariq	0,3	62,1	-	-	0,3	62,7
Quva	1,1	54,9	-	-	1,1	51,4
Uchko'prik	2,4	57,1	0,1	100,0	2,3	57,5
Rishton	1,4	62,0	-	-	1,4	60,8
So'x	1,7	55,7	-	-	1,7	55,9
Toshloq	0,9	57,0	-	-	0,9	57,2
O'zbekiston	0,8	55,5	-	-	0,8	54,9
Farg'ona	1,0	55,7	-	-	1,0	56,4
Dang'ara	1,2	59,5	-	-	1,2	60,7
Furqat	0,3	49,5	-	-	0,3	54,3
Yozyovon	0,1	56,6	-	-	0,1	56,0

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 506,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **18,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **338,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **32,1 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 167,6** mlrd. so'mni (**15,3 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **1 640,1** mlrd. so'mni (**15,7 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **527,5** mlrd. so'mni (**13,9 %** ga kamayish) tashkil etdi.


## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qo'qon (**203,7 %**) shahrida va Oltariq (**306,5 %**), O'zbekiston tumanlarida (**127,9 %**) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Qo'qon (**90,7 %**) shahrida va So'x (**88,0 %**), Farg'ona t (**87,4 %**) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyat</b>	<b>2506,1</b>	<b>82,0</b>	<b>338,5</b>	<b>67,9</b>	<b>2167,6</b>	<b>84,7</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	767,5	78,0	282,1	62,4	485,4	91,2
Qo'qon	352,4	90,7	51,3	203,7	301,1	82,8
Quvasoy	41,3	81,7	-	0,0	41,3	81,7
Marg'ilon	377,9	84,9	-	0,0	377,9	84,9
<b>tumanlar</b>						
Oltariq	55,1	84,1	0,7	306,5	54,4	83,4
Qo'shtepa	3,2	80,2	-	0,0	3,2	80,2
Bag'dod	12,5	49,1	3,2	19,6	9,3	100,9
Buvayda	38,2	82,8	-	0,0	38,2	82,8
Beshariq	35,0	84,3	-	0,0	35,0	84,3
Quva	20,4	81,3	-	0,0	20,4	81,3
Uchko'prik	92,7	80,5	0,2	19,7	92,5	81,1
Rishton	14,0	83,9	0,2	47,0	13,8	84,9
So'x	1,8	88,0	0,1	57,4	1,7	89,6
Toshloq	137,1	80,8	0,3	14,8	136,8	81,6
O'zbekiston	374,0	81,7	0,1	127,9	373,8	81,7
Farg'ona	26,6	87,4	-	0,0	26,6	88,6
Dang'ara	112,9	82,3	0,2	36,0	112,8	82,5
Furqat	14,9	80,8	-	0,0	14,9	80,8
Yozyovon	28,6	83,6	0,1	39,5	28,4	84,0


# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **2 167,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **15,3 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,5 %** ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Marg'ilon (**100,0 %**), Quvasoy (**100,0 %**), shahrlarida va Qo'shtepa (**100,0 %**), Beshariq (**100,0 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Farg'ona (**63,2 %**) shahriga to'g'ri keldi.



2020-yil  
yanvar-may



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Yirik korxonalar